



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

EKOLOGIK GLOBALLASHUV: IJTIMOYIY-EKOLOGIK SIYOSATNING MAZMUN MOHIYATI VA UNING EVOLYUTSIYASI

G'ulomova Ruxsora Buriyevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola ekologik globallashuv va ekologik siyosat tushunchalari hamda ularning ijtimoiy munosabatlardagi roli tahlil qilingan. Ijtimoiy-ekologik siyosatning xususiyatlari, uning davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyati hamda tarixiy shakllanish evolutsiyasi yoritilgan. Shuningdek, ayrim mintaqalarda ekologik inqirozga qarshi hamkorlikning sustligi ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib kelayotgani ko'rsatib o'tilgan. Natijada ekologik xavf hududlarida yashovchi aholining turmush sharoitlari og'irlashayotgani ta'kidlanib, ushbu hududlarda ijtimoiy-ekologik siyosatni rivojlantirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, siyosat, Evolutsiya, ekologik siyosat, ijtimoiy ekologik siyosat, tabiat, atrof muhit, iqtisodiyot.

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ГЛОБАЛИЗАЦИЯ: СОДЕРЖАНИЕ СОЦИАЛЬНО- ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ И ЕЁ ЭВОЛЮЦИЯ

Гуломова Рухсора Буриевна

Шахрисабзский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

Этот данной статья анализируются понятия экологической глобализации и экологической политики, а также их роль в системе социальных отношений. Раскрываются особенности социально-экологической политики, её значение в жизни государства и общества, а также процесс её исторического формирования. Также отмечается, что недостаточный уровень сотрудничества в борьбе с экологическими кризисами в ряде регионов приводит к ухудшению экологической ситуации. В результате подчеркивается, что условия жизни населения, проживающего в экологически опасных зонах, становятся более тяжелыми, и обосновывается необходимость развития социально-экологической политики в данных регионах.

Ключевые слова: Глобализация, политика,эволюция, экологическая политика, социально-экологическая политика, природа, окружающая среда, экономика.

ECOLOGICAL GLOBALIZATION: THE CONTENT OF SOCIAL-ECOLOGICAL POLICY AND ITS EVOLUTION

Gulomova Rukhsora Buriyevna

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Teacher

Abstract

This article analyzes the concepts of ecological globalization and environmental policy, as well as their role in the system of social relations. It highlights the features of socio-environmental policy, its significance in the life of the state and society, and the process of its historical formation. It is also noted that the insufficient level of cooperation in addressing ecological crises in some regions leads to the deterioration of environmental conditions. As a result, it is emphasized that the living conditions of populations in ecologically vulnerable areas are becoming more difficult, and the need to develop socio-environmental policy in these regions is substantiated.

Keywords: Globalization, politics, evolution, ecological policy, social ecological policy, nature, environment, economy.

Insoniyat yangi ming yillikka qadam qo‘ygan bo‘lsa-da, global ekologik muammolarning tobora keskinlashib borishini bartaraf etishga qaratilgan vazifalarni yetarli darajada hal qila olgani yo‘q. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab global tus olgan ekologik inqiroz yil sayin kuchayib bormoqda. Uning ijtimoiy-siyosiy ta‘siri jahon hamjamiyati taraqqiyotiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Inson salomatligi, uning erkin va sog‘lom yashash imkoniyatlariga ekologik muammolarning kuchayishi salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bois davlat siyosatining asosiy paradigmasi sifatida ekologik muhit barqarorligini ta‘minlash va uning ijtimoiy mexanizmlarini to‘g‘ri yo‘naltirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ekologik muammolarning keskinlashuvi davlat ekologik siyosati samaradorligini oshirishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Yangi ming yillikda davlat ekologik siyosati tarkibida yangi yo‘nalish — ijtimoiy-ekologik siyosat shakllanib, aholini ekologik tahdidlardan muhofaza qilish borasida samarali natijalarga erishishga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy-ekologik siyosat ekologik muhitni barqarorlashtirishga xizmat qiladigan, aholini ekologik tahdidlardan ijtimoiy jihatdan himoya qilishga qaratilgan munosabatlar majmuini tashkil etadi.

XX asr boshlaridan jahon miqyosida globallashuv jarayoni shakllana boshladi. XX asrning ikkinchi yarmidan esa u yanada jadallashdi. Natijada jamiyat hayotining barcha sohalarida globallashuv ta‘sirida rivojlandi. Bu davrda davlatlar, avvalo, iqtisodiy taraqqiyotga va aholi farovonligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratdilar. Shu sababli globallashuv jarayonining mazmuniga bag‘ishlangan adabiyotlarda uning yuzaga kelishi ko‘proq iqtisodiy omillar bilan bog‘lanadi. Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan yondashuv globallashuv uchun zamin yaratdi. Keyinchalik esa globallashuv jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi va uning mazmun-mohiyatini o‘rganish ilmiy tadqiqotlar ob‘ektiga aylandi.

Globallashuv tushunchasi bugungi kungacha ilmiy tadqiqot ob‘ekti sifatida tahlil qilinib, uning istiqboldagi ijobiy va salbiy natijalarining jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatadigan ta‘siri aniqlanib kelinmoqda. Avvalo, inson taqdiri, uning kelajagi, sog‘lom turmush tarzi, erkin va farovon hayotini ta‘minlash davlat siyosatining bosh maqsadiga aylangan.

Globallashuv tushunchasi mazmunini tadqiq qilgan olimlar uni ikki qarama-qarshi — salbiy va ijobiy ma‘noda talqin qiladilar. Masalan, A. Zinovevning fikricha, “bir qarashda hech qanday mafkuraviy ma‘no kasb etmaydigan, ‘globallashuv’ deb nomlangan umumsayyoraviy jarayon yangi jahon urushidir”, degan xulosa ilgari suriladi [Худайбергенов А. *Глобализация: философия таҳлили*. Филс. ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд: СамДУ, 2019. – Б. 12.]. Ikkinchi guruh olimlari esa globallashuvni umumjahon iqtisodiy tendensiyalari va jahondagi murakkab, ko‘p bosqichli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimining shakllanish jarayoni deb baholaydilar. Har ikkala holatda ham globallashuv jamiyatdagi barcha sohalarini qamrab oladi. Uning natijasi qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, u jamiyatning barcha sohalariga ta‘sir etishda davom etadi.

Ijobiy mazmun kasb etuvchi globallashuv jamiyatga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi jarayonlarga qarshi faol mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda globallashuvning tobora jadallashib, uning yakuni ko‘rinmayotganidan kelib chiqadigan bo‘lsak, unga jarayon sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Bu masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchi tomoni shundaki, u jamiyat va insoniyat taraqqiyotining ob‘ektiv qonuniyati hisoblanadi. Ya‘ni u inson xohishidan qat‘i nazar kechadi. Chunki u borliqning yashash qonunlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Globallashuvga berilgan ta‘riflar turlicha. Ammo uni bir tomonlama talqin qilish nisbiy xulosalarni keltirib chiqaradi. Globallashuv keng qamrovli tushuncha bo‘lib, jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi universal jarayondir. Shu jihatdan qaraganda, mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning “globallashuv — bu, avvalo, hayot sur‘atlarining beqiyos darajada tezlashuvidir” degan xulosasi bilan hamohangdir [Каримов И.А. *Южаск маънавият – энгилмас куч*. – Т.: “Маънавият”, 2016. – Б. 111.]. Keltirilgan ta‘riflardan ko‘rinadiki, keyingi

taraqqiyot bosqichlari globallashtirish amalga oshmaydi. Jahon davlatlari va xalqlari o'rtasidagi o'zaro integratsiyaning kuchayishi, inson faoliyati va turmush tarzining qulaylashuvi, turli qadriyatlarning umuminsoniy qadriyatlar negizida uyg'unlashuvi, barcha muammolarni bartaraf etishda olamshumul yutuqlardan bahramand bo'lish uchun xalqaro hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan munosabatlar majmui globallashtirish asosida kechmoqda.

Umuman olganda, "globallashtirish" tushunchasi fransuzcha *global* — umumiy va lotincha *globus* — shar so'zlaridan olingan bo'lib, birinchidan, Yer yuziga oid, butun Yer sharini qamrab oluvchi, ikkinchidan esa umumbashariy, keng miqyosdagi, jahonshumul, jahon ahamiyatiga molik ma'nolarni anglatadi.

Globallashtirish jamiyat taraqqiyotidagi muhim jarayondir. Bugungi kun taraqqiyoti globallashtirish amalga oshishi qiyin. Hayot sur'atlari jadallashuvi davom etar ekan, bugungi va kelajak jamiyat ravnaqi xalqaro hamkorlik natijasida ro'yobga chiqishi ilmiy va amaliy jihatdan o'z isbotini topmoqda. Bu esa globallashtirishning barcha sohalarida salmoqli natijalarga erishish tizimini mustahkamlashga xizmat qilmoqda va quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: birinchidan, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda davlatlar o'rtasidagi hamkorlik kuchaymoqda; ikkinchidan, iqtisodiy globallashtirish moliyaviy munosabatlar rivojlanishiga zamin yaratmoqda; uchinchidan, iqtisodiy va moliyaviy globallashtirish siyosiy munosabatlar hamda konfederativ aloqalarning takomillashuviga shart-sharoit hozirlamoqda; to'rtinchidan, iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy globallashtirish ma'naviy-madaniy munosabatlar rivojiga xizmat qilmoqda; beshinchidan, globallashtirishning jadallashuvi diniy munosabatlardagi yakdillikka ham asos bo'lib, diniy munosabatlar globallashtirishni shakllantirmoqda; oltinchidan, iqtisodiy globallashtirish jarayonlari inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar xarakterida ham ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda [Омонов Б. *Экологик глобализация в унинг Ўзбекистондаги экологик муҳитга таъсири*. – Т., 2021. – Б. 12–15.].

Globallashtirish jarayoni ijobiy natijalar bilan birga salbiy holatlarning ham shakllanishiga zamin yaratdi. Jumladan, birinchidan, globallashtirish jahon bozorida iqtisodiy munosabatlardagi qarama-qarshiliklarni kuchaytirdi; ikkinchidan, moliyaviy hamkorlikka putur yetkazishga bo'lgan urinishlarni ko'paytirdi; uchinchidan, geosiyosiy harakatlarda bo'linishlar va dunyo hokimiyatiga egalik qilish intilishini kuchaytirdi; to'rtinchidan, ma'naviy-madaniy qadriyatlarga qarshi tajovuzlar, "ommaviy madaniyat" niqobi ostida o'zga madaniyatlarni singdirish va targ'ib qilish holatlarini yuzaga keltirdi; beshinchidan, dinlararo konfliktlarga sabab bo'ldi; oltinchidan, geologik va ekologik tahdidlarni kuchaytirdi. Globallashtirishning salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida umuminsoniy manfaatlarga asoslangan xalqaro hamkorlik shakllanib, uning ijobiy natijalari ko'zga tashlanmoqda.

Ekologik globallashtirish, asosan, uchta muhim jarayon — ekologik muammolar, ekologik vaziyat va ekologik munosabatlarning umumiy yig'indisi asosida shakllanuvchi, tabiat, jamiyat, inson va davlat munosabatlariga ta'sir etuvchi hamda tabiat qonuniyatlariga amal qilish majburiyatining umumplanetar darajaga ko'tarilishidir. Chunki Yer sharining har bir mintaqasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar to'g'ridan-to'g'ri boshqa hududlar ekologik vaziyati va munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi hamda xalqaro miqyosdagi ekologik jarayonlarga sabab bo'ladi. Natijada ekologik globallashtirish uchun zamin hozirlanadi.

Ekologik globallashtirish o'z-o'zidan shakllangan jarayon emas, u tabiatga inson omilining ta'siri ortishi bilan bog'liq. Ayrim olimlar ekologik muhit o'zgarishini ob'ektiv xususiyatga ega deb ta'kidlaydilar. Ularning ilmiy tadqiqotlarida quyidagi fikrlar aks etadi: birinchidan, ekologik muhitning o'zgarishi ob'ektiv ekanligi izohlanadi, ammo ekologik globallashtirish inson ta'sirida yuzaga keladi; ikkinchidan, ushbu guruh olimlari iqtisodiyotning globallashtirish ob'ektiv tarzda ekologik globallashtirishni keltirib chiqarishi muqarrar degan xulosaga keladilar, biroq iqtisodiy taraqqiyot ko'pincha tabiatga keskin tajovuz oqibatida yuzaga kelganini ham e'tirof etish zarur; uchinchidan, aholining o'sish sur'atlari tezlashuvi ekologik globallashtirishga ta'sir etuvchi omil deb qaralsa-da, aslida bu holat geosiyosiy munosabatlarning sub'ektiv ta'siri bilan ham chambarchas

bogʻliq; toʻrtinchidan, davlatlarning yangi taraqqiyot bosqichiga oʻtishi ekologik globallashuvning asosi deb baholansa-da, amalda gegemonizm sari yoʻnaltirilgan harakatlar rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ekologik tazyiqning kuchayishiga olib kelmoqda. Umumiy xulosaga koʻra, ekologik globallashuvni keltirib chiqaruvchi barcha jarayonlar mutlaq obʻektiv boʻlganida, insoniyatning muammolar oldini olish uchun barcha sohalarni ekologiyalashtirishga qaratilgan urinishlari global darajaga koʻtarilmagan boʻlardi.

Ekologik inqirozning yuzaga kelishi ekologik globallashuv shakllanishiga zamin yaratdi. Nemis olimi Vittario Hyoslening fikricha, hozirgi global ekologik inqirozga sabab boʻlgan uch omil mavjud: fan, texnika va iqtisodiyot. Lekin zamonaviy jamiyat bulardan voz kecha olmaydi, ekologik inqirozdan esa chiqish zarur. Buning uchun jamiyat taraqqiyotining yangi paradigmasiga oʻtish lozim. Yangi paradigmada “uchlik” saqlab qolinganda, uni tubdan isloh qilish talab etiladi. Birinchidan, fan bundan keyin parokanda emas, balki uzviy va yaxlit boʻlishi, ilmiy tafakkur oʻzagini esa ezgulik gʻoyasi tashkil etishi lozim. Ikkinchidan, har qanday texnikaviy loyihaga qoʻl urishdan oldin, agar bu loyiha salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud boʻlsa, undan voz kechish zarur. Uchinchidan, bozor iqtisodiyoti aholi ehtiyojini qondirishda boshqa usullardan afzal ekani bois saqlab qolinishi mumkin, lekin ehtiyojlar cheksizligi “kasalligi”dan xalos etilishi lozim [Эркаев А. *Маънавиятшунослик*. 2-китоб. – Т.: “Маънавият”, 2018. – Б. 240.].

Ekologik globallashuvning mohiyati murakkab xususiyatga ega. Uni “ayrimlik–umumiylik” dialektikasi asosida talqin qilsak, u umumiy xarakterga ega boʻlgan jarayonni mujassamlashtiradi. Boshqa tomondan esa, u oʻziga xoslikni, yaʼni tabiat–inson munosabatlarini namoyon etadi. “Tizim–element” dialektikasi nuqtai nazaridan qaralganda, ekologik globallashuv globallashuvning boshqa shakllari qatori element vazifasini bajaradi. “Sabab va oqibat” dialektikasiga koʻra tahlil etilganda esa, globallashuvning boshqa sohalari ekologik globallashuvni keltirib chiqargani, ekologik globallashuv esa oʻsha sohalarning oqibati sifatida yuzaga kelgani koʻzga tashlanadi.

Ekologik globallashuvning shakllanishi davlat ekologik siyosatining takomillashuviga shart-sharoit yaratdi. Davlat siyosati tarkibida “ekologik siyosat” alohida yoʻnalish sifatida mustaqil faoliyatni boshladi. Ekologik siyosatning mustaqil siyosat tarmogʻi sifatida shakllanishi XX asrning oʻrtalariga borib taqaladi. Ekologik inqirozning kuchayishi barcha davlatlarda ekologik siyosat sohasining rivojlanishiga olib keldi. Ekologik siyosatning vazifalari, uni rivojlantiruvchi va harakatlantiruvchi mexanizmlari, kategoriyalari barchaga maʼlum. Uning asosiy vazifasi davlatda ekologik xavfsizlikni taʼminlashdan iborat.

Ekologik xavfsizlikni taʼminlash umumjahon davlatlarining strategik vazifasiga aylanishi ekologik munosabatlarda davlat ekologik siyosatining integratsiyalashuvi va unifikatsiyalashuvini tezlashtirdi. Milliy va mintaqaviy ekologik qadriyatlarining xalqaro standartlarga integratsiyalashuvi davlat ekologik siyosati tarkibida “ijtimoiy-ekologik siyosat”ning shakllanishiga yoʻl ochdi. Bu siyosat ekologik siyosatning tarkibiy qismi sifatida shakllanib, alohida siyosiy tarmoqqa aylanishi yangi ming yillikning boshlanish davriga toʻgʻri keladi.

“Ijtimoiy-ekologik siyosat” davlat ekologik siyosatining muhim tarmogʻidir. Jahonda kechayotgan ekologik globallashuvning salbiy taʼsiri natijasida ayrim mintaqalarda ekologik vaziyat ogʻirlashmoqda. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarning ekologik muhitga koʻp zarar yetkazadigan ishlab chiqarish korxonalaridan voz kechishi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu sohadagi muammolarning saqlanib qolishi boshqa mintaqalarning ekologik muhitiga ham salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Ayrim davlatlarda ekologik inqirozga qarshi yakdil hamkorlikning yoʻlga qoʻyilmagani va xalqaro ekologik standartlarga mos siyosat olib borilmayotgani ekologik vaziyatdagi oʻzgarishlarga sabab boʻlmoqda. Natijada ekologik inqiroz yoqasida yashayotgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy-madaniy shart-sharoitlari ogʻir holatni tashkil etmoqda. Aynan shunday hududlarda davlatning ijtimoiy-ekologik siyosatiga ehtiyoj ortadi.

Mazkur jarayonda “ekologik siyosat” va “ijtimoiy-ekologik siyosat” o‘rtasidagi farqli hamda o‘zaro aloqador jihatlarni aniqlashtirish muhim vazifaga aylanadi.

Asrlar davomida davlatlarning rivojlanishi ijtimoiy-ekologik munosabatlarning ham takomillashuviga shart-sharoit yaratib bordi. O‘zbekistonda ijtimoiy-ekologik siyosatning shakllanish genezisini shartli ravishda olti bosqichga bo‘lish maqsadga muvofiq:

- birinchi — eng qadimgi davlatlar faoliyati davri;
- ikkinchi — o‘rta asrlar va birinchi Renessans davri;
- uchinchi — Amir Temur va temuriylar davridagi ikkinchi Renessans bosqichi;
- to‘rtinchi — Markaziy Osiyodagi xonliklar davri;
- beshinchi — Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sobiq Sovet Ittifoqi davri;
- oltinchi — mustaqillik davri.

Ijtimoiy-ekologik siyosatning shakllanish genezisi har bir davrda o‘ziga xos tarzda davom etgan. Tarixiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ekologiya bilan bog‘liq tushunchalar turli davrlarda o‘ziga xos tarzda talqin qilingan.

Ekologik siyosat va ijtimoiy-ekologik siyosat o‘rtasidagi farqlar quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

	Ekologik siyosat	Ijtimoiy-ekologik siyosat
Mohiyati va maqsadi	Tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan	Inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlaydi; ekologiya va ijtimoiy farovonlikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan
Urg‘u	Tabiat va uning barcha komponentlari	Tabiat + inson + ijtimoiy sharoit
Ko‘lami	Tor qamrovli	Keng qamrovli
Ijtimoiy omillar	Kam hisobga olinadi	Sog‘liq, turmush sifati, aholi manfaatlari asosiy o‘rinda turadi
Misol	Daryo suvini tozalash	Daryo suvini tozalash; aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash; suv bilan bog‘liq kasalliklarni kamaytirish

Umuman olganda, ekologik siyosat tabiatni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ijtimoiy-ekologik siyosat ekologik xavfsizlikni inson manfaatlari, sog‘lig‘i va ijtimoiy farovonlik bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. Shu sababli globallashuv sharoitida aynan ijtimoiy-ekologik siyosatning samarali shakllanishi va rivojlanishi davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘ulomova R. B. Davlat ekologik siyosatining ijtimoiy mohiyati // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarleri. — Toshkent, 2024. — № 1/3/1. — B. 93–95.
2. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Samarqand: SamDU, 2019. — B. 12.
3. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma‘naviyat, 2016. — B. 111. — 176 b.
4. Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O‘zbekistondagi ekologik muhitga ta‘siri. — T., 2021. — B. 12–15. — 136 b.
5. Erkaev A. Ma‘naviyatshunoslik. 2-kitob. — T.: Ma‘naviyat, 2018. — B. 240. — 456 b.
6. Xudayberganov A. Globallashuv sharoitida milliy davlatchilik suverenitetini mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy tahlili: falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Samarqand: SamDU, 2019. — B. 12.
7. Yaxshilikov J., Muhammadiev N. Milliy g‘oya — taraqqiyot strategiyasi. — T., 2017. — B. 267. — 424 b.